

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova Dual ta'lim tizimi oliy ta'limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O'zbekiston konteksti	6
Л.К.Орынбаева, У.С.Марчибаева, Е.К.Сейсенбеков Актуальность программ повышения квалификации в формировании компетентностей педагога Казахстана	12
Н.Ю.Костюнина, С.У.Бичурина Неблагополучная семья как фактор девиантной виктимности.....	17
O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning o'rni	22
A.S.Toshmatov The role of self-efficacy in teaching foreign languages to improve writing skills.....	25
G.Sh.Latipova Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	31
Sh.D.Iskanderova Fundamentals of pedagogical training: instructional strategies for early learners	38
I.M.Saidov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari.....	43
Н.Ш.Абдуллаева Characteristics and evolution of middle English language.....	48
M.A.G'ofurova Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish texnologiyalari.....	54
N.F.Yigitaliyeva Pediatriya ishi yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsiyalar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi	59
T.T.Shoymardonov Oliy ta'lim pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish tajribasi: tahliliy yondashuv	63
S.M.Abdullayev Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari.....	69
D.O.Djalilova Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlar.....	73
D.I.Gulamova Evfemizmlarning o'rganilish tarixi.....	77
B.T.Jumayeva Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	81
A.R.Saydullayeva, K.L.Ro'ziyeva Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari.....	81
A.R.Saydullayeva, M.E.Nabiyeva Zararli odatlarga qarshi pedagogik immunitet tushunchasi va uning ahamiyati.	89
G'.R.Israilov Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli	93
A.X.Karimov Oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy jihatlar.....	97
М.Н.Насритдинова Инновационная артпедагогика как ресурс развития художественно-творческой компетентности у будущих педагогов в цифровую эпоху.....	100



UO'K: 378.014.15

**FANLARARO HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI
O'QITUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI****ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ****ISSUES OF DEVELOPING COGNITIVE COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS
ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY COOPERATION**

Abdullayev Sardorbek Maxammat o'g'li 
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini fanlararo hamkorlikda rivojlantirish ning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini fanlararo hamkorlikda rivojlantirish metodikasini modernizatsiyalash bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini fanlararo hamkorlikda rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы междисциплинарного развития познавательной компетентности будущих учителей музыкального образования, модернизация методики междисциплинарного развития познавательной компетентности будущих учителей музыкального образования, а также эффективность междисциплинарного развития познавательной компетентности будущих учителей музыкального образования. Также были проанализированы вопросы формирования познавательной компетентности будущих учителей музыкального образования на основе междисциплинарного взаимодействия.

Abstract

This article explores the theoretical and methodological foundations for developing the cognitive competence of future music teachers through interdisciplinary collaboration. It examines the modernization and effectiveness of methods aimed at enhancing cognitive competence in this context. Additionally, the article analyzes key issues in fostering cognitive competence of future music teachers based on interdisciplinary approaches.

Kalit so'zlar: pedagog, kasbiy kompetentlik, klassifikatsiya, takomillashtirish, kompetensiya, kognitiv kompetentlik.

Ключевые слова: педагог, профессиональная компетентность, классификация, совершенствование, компетентность, когнитивная компетентность.

Key words: pedagogue, professional competence, classification, improvement, competence, cognitive competence.

KIRISH

Bugungi kunda o'qitishning didaktik imkoniyatlarini oshirish, zamon va o'zgarishlar talabiga moslashtirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Inson hayotning barcha sohalarida - ijtimoiy, iqtisodiy, kasbiy, maishiy va hokazolarda o'zlashtirishga majbur bo'lgan ma'lumotlarning hajmi va murakkabligi doimiy ravishda ortib bormoqda, bunga mos ravishda insondan o'z bilimlarini tezda yangilash, o'zgaruvchan axborot muhitida moslashuvchan harakat qilish qobiliyatini talab qilinadi. Fan, texnika va ijtimoiy sohada erishilgan yutuqlar, shuningdek, ishlab chiqarishni texnologiyalashtirish va axborotlashtirishning keng ko'lamli jarayonlarini tobora kengaytirish, yangi sohalarning paydo bo'lishi mutaxassislarining kasbiy malakasiga yuqori talablar qo'yimoqda.

Raqobat va raqobatbardoshlik bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olayapti. Shu munosabat bilan yoshlar o'rtasida xulq-atvorning yangi shakllari tug'iladi, bundan yangi munosabatlar quriladi, ehtiyoj va dunyoqarash yondashuvlari o'zgarishlarga yuz tutadi. Agar shaxsiy o'zgarishlar ijobiy bo'lsa, ular yoshlarga o'z-o'zini rivojlantirish uchun o'zgaruvchan hayotiy

PEDAGOGIKA

vaziyatlarga faol va foydali javob berishga yordam beradi. Biroq barcha yoshlar ijtimoiy muhitning tez o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha olmaydilar. Shunday qilib, har bir inson mehnat bozorida raqobatbardoshlik bo'lishi uchun ijtimoiy mas'uliyatli, refleksiv, moslashuvchan, harakatchan, tez qaror qabul qilish qobiliyati kabi shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Bunda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik natijasi sifati hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida pedagog mutaxassislar tayyorlash sifati bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy ta'limda o'qitishga doir yondashuvlarni o'zgartirish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish, talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, V.F.Nyumen, G.S.Drouri, M.R.Korbella, R.F.Sprol, B.Krovel, D.Scheyfer, M.M.Aripov, M.Ochilov, E.N.Sayidahmedov, D.I.Yunusov, B.S.Abdullayeva, S.D.Bazarova, G.V.Abramyan, V.V.Aleynikov, O.R.Badaguyeva, P.Y.Galperin, N.Gomulina, M.V.Seliverstova, N.A.Muslimovlar talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalar ham inqirozga yuz tutayotgan hozirgi davrda raqobatbardosh kadrlar zaxirasini tayyorlash muammosi ayniqsa muhimdir. Moliyaviy - iqtisodiy inqiroz, xodimlarni qisqartirish, korxonalarning bankrotligi ishsizlikka olib keladi. Shuning uchun kasblarni birlashtirish bo'yicha muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, boshqa faoliyatga muvaffaqiyatli o'tish yoki faoliyat turini o'zgartirish qobiliyati, ya'ni kasbiy raqobatbardoshlik xislatlariga ega bo'lish ijtimoiy-iqtisodiy noqulayliklar, inqirozlar oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Mukammal nazariy bilimlarga ega bo'lish ayniqsa yuqori texnologiyalarni yaratishda zaruriy talabga aylanadi. Zamon talablariga monand ravishda keyingi o'n yilliklarda mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgardi ularni aks ettiruvchi ta'lim standartlarini ishlab chiqish borasida ham bir qator ishlar qilindi. Yunesko tomonidan qabul qilingan ta'limning Xalqaro klassifikatsiyasi, O'zbekistonda yangi "Ta'lim to'g'risidagi" qonun asosida olib borilgan, ta'limning mazmunini belgilash uni amalga oshirish usul va vositalarini yaratish uchun asos bo'ladigan. Ta'limning aniq yo'nalishi, alohida mutaxassislik yoki ixtisoslik uchun zarur bo'lgan fanlarni aniqlash, har bir fanning mazmunini optimal ravishda belgilashda hozirgi davrda ilmiy bilish sohasida kechayotgan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan 2 jarayon differentsiatsiyalashuv va integratsiyalashuvni e'tiboga olish o'ta muhim bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, hozirgi davrda ilmiy bilish sohasida yangi fanlar, fan tarmoqlarni yaratish, alohida dolzarb muammolarni chuqur o'rganish zaruriyati yangidan – yangi fanlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Ilmiy bilishning ko'lami, qamrovini kengaytirish, alohida muammolarni chuqurlashtirilgan holda tadqiq etishni taqazo etuvchi bunday jarayonlar oliy ta'limning aniq o'yo'nalishi, mutaxassislik, ixtisoslik bo'yicha o'qitilishi maqsadga muvofiq bo'lag fanlarni aniqlash ularning optimal mazmunini belgilash eng muhim, ularni o'qitish jarayonida integratsiyalanishni ta'minlashga e'tibor qaratishni taqazo etmoqda. Buning uchun har bir sohaga oid fundamental va maxsus fanlar o'rtasidagi vertikal integratsiyani alohida mutaxassislik yoki ixtisoslik fanlari orasidagi gorizantal aloqalarni mustahkamlash diqqat markazadi bo'lmoqda. Albatta, fanlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni kuchaytirish bo'lg'usi mutaxassislarning malakaviy tayyorgarligini oshirishga zamin yaratadi. Bunday yondashuv kasbiy faoliyat sohasida kechadigan innovatsion jarayonlarni tahlil qilish, kelajakda anashunday ijodiy faoliyatni mustaqil ravishda olib borish uchun zarur bo'lgan malakalarni singlirishga yordam beradi. Albatta, ilmiy bilish sohasida paydo bo'layotgan, amaliy faoliyatda keng joriy etilayotgan yangi fanlarni amaldagi o'quv rejalari va dasturlariga kiritishda aniq mezonlarga asoslanish lozim.

Hozirgi davrda mana shunday mezonlarni aks ettiruvchi metodologik va ilmiy uslubiy yondashuvlar shakllanmoqda. Ularning qatoriga, jumladan, o'qitiladigan fanlarni aniqlash ularning mazmunini belgilashga madulli o'qitish nuqtay nazaridan yondashish, fanlarni o'qitishga yo'naltirishdan asta – sekinlik bilan kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tish kabilar kiradi.

Har ikki yondashuv ham talabalarga keng ko'lamlı, zamon talabiga mos keladigan bilimlarni spidirish orqali ularda bo'lg'usi kasbiy faoliyat haqida, uning rivojlanish tendensiyalari, tabiiyki,

sohada olib borilayotgan innovatsion faoliyat haqida atroflicha tushunchalarni singdirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv rejalari, dasturlarni yaratish sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy usullarning ta'limning pirovard natijalarida ham aks etishiga erishish uchun yaxlit ta'lim tizimining ikki muhim komponenti – o'qitish faoliyati va ta'lim olish faoliyatini takomillashtirish zaruriy talabga aylanmoqda. Bo'lg'usi mutaxassislarni o'qitishni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kompetentlik darajasini inobatga olgan holda amalga oshirish oliy ta'lim sohasidagi istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Kasbiy kompetentlik mutaxassisning o'zi faoliyat olib boradigan sohadagi muammolarni anglab yetish, ularni yuqori saviyada hal qilish, o'zi bajaradigan ishlab chiqarish yuzasidan mas'uliyatni to'liq zimmasiga olish uchun zarur bo'lgan malakaviy tayyorgarlik darajasini aks ettiruvchi tushunchadir.

Yangi davr voqeligi, tez sur'atlar bilan o'zgarib boradigan hozirgi sharoitda professional kompetentlik yangicha ma'no kasb etib, nafaqat kasbiy faoliyatni ta'lim olish jarayonida o'zlashtirilgan, reproduktiv faoliyat uchun xos bo'lgan usul, uslub va vositalardan samarali foydalanishni, balki yangidan yaratilgan innovatsiyalarni joriy etish, imkoniyat darajasida innovatsion g'oyalarni mustaqil ravishda ilgari surish va ularni ro'yobga chiqarish solohiyatini ham ifoda qiladi.

Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish asosida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarining sayqal tapishi uchun talabani mustaqil fikrni ilgari surish, uni asoslash, zarur bo'lgan o'z fikrlari himoya qilish, yetarli asoslanmagan fikrlarga e'tiroz bildirish, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik, boshlagan ishni payoniga yetkazish, yuritilayotgan faoliyatning natijalar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi xislatlarni barcha fanlarni o'qitish jarayonida shakllantirish mumkin. Binobarin, bunday intellektual va axloqiy sifatlar oliy o'quv yutirining barcha yo'nalishlarida umum ta'limiy tayyorgarlikni amalga yoshirish maqsadida olib boriladigan ijtimoiy – gumanitar fanlar negizida yanada izchilroq amalga oshirilishi mumkin. Albatta, talabalarga tegishli kasbni egallash uchun zarur bo'lgan umum ta'limiy fanlar, ularning umumiy madaniy saviyasini yuksaltirish uchun xizmat qiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda shu kasbiy faoliyatga oid bo'lgan, bozor talabiga mos keladigan tovar yoki ijtimoiy xizmat turini yaratish bo'yicha yangicha faoliyatni yo'lga qo'yish uni pirovard natijasini ta'minlash qiyin. Ammo bunday maxsus fanlar doirasida ijodiy kognitiv faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq tayyorgarlik ishlarini samarali ravishda olib borish mumkin. Masalan, "San'atshunoslik" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni "O'zbekiston tarixi", "Madaniyatshunoslik" fanlarini o'qitishda tarixiy taraqqiyotning turli davrlarda dori-darmonlarni tayyorlash, ularni ishlab chiqarishga oid yangi usul va vositalarni yaratishga qaratiladigan ijodiy faoliyatning rivojlanish jarayonini tarixiylik usuli yordamida tahlil qilish orqali shu sohadagi innovatsion faoliyat haqida atroflicha bilimlarni shakllantirish mumkin.

XULOSA

Didaktik jarayonning so'ngi tarkibiy qismi o'quv bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Ko'nikma siklik turdagi boshqarish tizimi didaktik jarayon uchun qo'l keladi. Sababi, zaruriy o'quv axborotlari o'qituvchidan talabalarga, to'g'ri aloqa yordamida uzatiladi. Asosiy harakatlarni bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni esa teskari aloqalar yordamida talabalardan o'qituvchiga uzatish imkoniyati mavjud bo'ladi. Boshqarishning muhim jihati shundaki, agar o'quv faoliyati talaba tomonidan bajarilsa, boshqarish algoritmini o'qituvchi tomonidan yoki talaba ham bajarishi mumkin. Buning uchun o'quv topshiriqlarining to'g'ri javoblari etolonlari talabalarga ham beriladi. Shunda talabalar o'z faoliyatlarini tekshirish va harakatlarini tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Колесникова И. А., Горчакова – Сибирская М. П. Педагогическое проектирование. М. : Издательский центр «Академия», 2007. 208 с.
2. Ибрагимов Л. А., Петрова Г. А. Профессиональная компетенция учителя: содержание, структура // Вестник НВГУ. 2010. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnaya-kompetentsiya-hitelyasoderzhanie-struktura> (дата обращения: 09.10.2023).
3. Макарова, С. В. Формирование готовности к профессиональной деятельности будущего педагогамузыканта на основе парадигмы педагогической поддержки / С. В. Макарова // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Гуманитарные науки. - 2011. - № 1 (17). - С. 153-161.
4. Матвеева К. П. Формирование навыков управления певческой деятельностью школьников как существенный компонент в подготовке учителя музыки: автореф. дис. ... канд. пед. наук. М. : МГПИ, 1981. 16 с.

PEDAGOGIKA

5. Немыкина И. Н. Функциональная характеристика обобщенных понятий в музыкально-педагогической деятельности // Музыкально-эстетическое образование в социокультурном развитии личности: Материалы 1-ой Междунар. межвуз. науч. – практ. конф. Екатеринбург, 29 – 31 марта 2001 г. Екатеринбург : Урал. гос. пед. ун - т, 2001. Том 4. С 35 – 40.

6. Юлдошев У.Ю. Миллий мақом асарлари асосида бўлажак мусиқа ўқитувчисининг ижодий тафаккурини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент.: ТДПУ. 2021. –Б. 10